

## O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

*Sherzod Saloxitdinov*

*Jizzax politexnika instituti assistenti*

*Ismatillayev Sardor*

*JizPI 511-22 menejment guruhi talabasi*


**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'naliishlari, 2024-yil yilda amalga oshirish mo'ljallangan asosiy strategik islohotlar, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2030-yilga borib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** barqaror, iqtisod, o'sish, yalpi ichki maxsulot, investitsiya, soha, ekstensiv intensiv.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 13-fevral kuni joriy yilda amalga oshirish mo'ljallangan asosiy strategik islohotlar bo'yicha taqdimot bilan tanishdi "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2030-yilga borib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard dollarga, aholi jon boshiga daromadni 4 ming dollarga yetkazib, bu borada o'rtachadan yuqori davlatlar qatoriga kirish maqsadi belgilangan[1]. Buning uchun iqtisodiyotda transformatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish, investitsiya va biznes muhitini yanada yaxshilash, qishloq xo'jaligida yuqori qo'shilgan qiymatni ta'minlash zarur.

Taqdimotda shu boradagi 5 ta muhim soha – transport, urbanizatsiya va shaharsozlik, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi va energetikadagi islohotlar ko'rib chiqildi. Iqtisodiyot rivoji uchun bosh omillardan biri bu – transport imkoniyatlari. Mamlakatimiz dengiz yo'llaridan uzoqligi sababli avia va temir yo'llarni diversifikatsiya qilishga urg'u berilmoqda.

O'tgan yili 6 ta aviakompaniya tashkil qilindi, 28 ta yangi samolyot olib kelindi. Samarqand xalqaro aeroportiga xususiy sektor jalb etildi. Real yalpi ichki mahsulot miqdori aholi sonidan katta miqdorda ko'p bo'lishi maqsadga muvofiq. Negaki, aholi soni real yalpi ichki mahsulot miqdoriga nisbatan yuqori oshishi aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sish sur'atini pasaytiradi. 2024-yilda O'zbekistonda aholi soni 36 799 728 kishi, nominal YaIM miqdori esa 1 066.5 trillion so'mligi ma'lumot sifatida berilgan[2]



**1- rasm. O'zbekistonda Yalpi ichki mahsulot hajmi (ishlab chiqarish usulida, joriy narxlarda, yillik)**

*Manba: O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan*

Rasmdan ko'rindiki, mamlakatimizda YaIMning o'sish sur'atlari deyarli barqaror tarzda bormoqda. O'tgan yilga nisbatan 2019-yilda 5,9%, 2020-yilda pasayib 0,7% ni tashkil etgan. 2021-yil 7,6%, 2022-yil 6,2%, 2023-yilda 5,8% ga oshgan.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy o'sish to'la darajada mamlakatdagi real yalpi ichki mahsulot miqdorining o'sib, sifat jihatidan takomillashuvi va uning aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi miqdorining oshishi bilan bir qatorda, shu yalpi ichki mahsulotni yaratishda aholining ish bilan ta'minlanganlik darajasining o'sishida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari mavjud. Iqtisodiy o'sishga ishlab chiqarishning avvalgi texnikaviy asosi saqlanib qolgan holda ishlab chiqarish omillari, ya'ni ishchi kuchi, kapital, tabiiy resurslarni ko'paytirish orqali iqtisodiy o'sishga erishish ekstensiv, aksincha, ishlab chiqarish omillarini sifat jihatidan takomillashtirish, yangi texnika-texnologiyalarni qo'llash, ishlab chiqarish imkoniyatlaridan yanada yaxshiroq foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishish iqtisodiy o'sishning intensiv turi deyiladi. Rivojlangan daylatlar foydalanadigan, o'zining cheklangan resurslardan unumli foydalanishi bilan kamxarajat, raqobatdosh tovar ishlab chiqarib, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi intensiv usul juda ham samarali.

Aynan yurtimiz O'zbekistonning hududi, aholi soni, iqlimi, tabiiy resurslari va dunyo bozoriga tezlik bilan raqobatdosh, arzon tovar ishlab chiqarish orqali chiqishi kabi omillarni hisobga olsak, biz uchun intensiv usul juda to'g'ri keladi. Bu usulda, asosan, ishlab chiqarishga zamonaviy texnika-texnologiyani jalb etish, ko'pchilik bajaradigan mehnatni kamroq ishchi kuchi bilan texnika yordamida bajarish nazarda tutiladi. Buning natijasida mahsulot tannarxi tushadi, sifat jihatidan yaxshilanadi, texnika hisobiga vaqt tejilib, tejalgan vaqt hisobiga esa qo'shimcha mahsulot ishlab chiqariladi.

Lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek, ishlab chiqarishga ko'p miqdorda zamonaviy texnikalarning joriy etilishi ishsizlik darajasini ham oshiradi. Natijada daromadi pasaygan iste'molchilar yetarlicha mahsulot sotib ololmaydi. Bu,o'z, navbatida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilishiga olib keladi. Taklif miqdorining talab miqdoriga nisbatan ortishi iqtisodiy inqirozga sabab bo'ladi. Bizning fikrimizcha, yaqin kelajakda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda quyidagi jihatlarga e'tiborni yanada kuchaytirish taqozo etiladi. Hozirgi paytdagi iqtisodiy o'sish omillari quyidalar:

1. Ishlab chiqarishdagi mahina-uskunalarining texnikaviy darajasi.
2. Ishchi kuchining sifat darajasi. Ishchi kuchining bilimi va tajribasi ish jarayonini boshqarishda, uni tashkil etishda va ishlab ishlab chiqarishdagi texnikaning qo'llanilishi bilan ahamiyatlidir. Har qanday texnika-texnologiya insonsiz biror natija bera olmaydi.
3. Ishlab chiqarishdagi texnologiyalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni qanday bo'lmasin, o'z vaqtida va tezlik bilan iste'molchilarga yetkazib berish talab etiladi. Bunday vaziyatda innovatsion texnologiyalar orqali yuqori samaraga erishish mumkin.
4. Xorijiy investitsiyalarning miqdori. Keng qamrovli iqtisodiy islohotlarda, masalan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash, fan-texnika yutuqlarini amaliyotga joriy etish va yangi korxonalarни qurishda zarur bo'ladigan mablag'ni tashqi qarzlar bilan emas, balki xorij investitsiyalari yordamida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Zamonaviy texnika va texnologiyalar ham aynan xorij investitsiyalari orqali kirib keladi.
5. Iqtisodiyotni erkinlashtirish.Bozor iqtisodiyotida bozor ishtirokchilari o'z manfaatini ko'zlab faoliyat yuritadi.Ularga yetarlicha erkinlik berilsa, ular o'z manfaati tufayli ko'proq tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi.
6. Dunyo bozoridagi holat. Bu holat eksport va import hajmiga, o'z navbatida iqtisodiy o'sishning bir maromda o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

7. Mamlakat aholisining demografik holati. Aholi o'sishining sekinlashuvi iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Lekin aholi sonining keskin kamayib borishi ishchi kuchi yetishmasligiga olib keladi. Bu holat ishchi kuchiga bo'lgan talabni ham oshirib yuboradi. Bu iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, yaqin kelajakda O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda quyidagi jihatlarga e'tiborni yanada kuchaytirish taqozo etiladi.

- maqsadli xorij investitsiyalarini jalb etish va investorlarga qulayliklar yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;
- fan-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga keng joriy etish;
- milliy va xorij valyutalariga nisbatan oqilona monetar siyosat;
- "xufiyona" iqtisodiyotga qarshi kurash va hokazolar.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 18-yanvar kuni 2024-yilda investitsiya, eksport va sanoat sohalaridagi ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.[3] Tanqidiy ruhda o'tgan yig'ilish avvalida ushbu sohalardagi ishlar holati, mutasaddilarning faoliyati ko'rib chiqildi. So'nggi olti yilda yurtimizga xorijdan qariyb 50 milliard dollar investitsiya kirgan. O'tgan yili yalpi ichki mahsulot ham, sanoat ham 6 foizga o'sgan. Biroq tovarlar eksportida o'sish bo'lmagan. Mamlakatimiz sertifikatlarini tan olish bo'yicha xorijiy sheriklar bilan ishlar lozim darajada tashkil etilmagan. Xalqaro moliya tashkilotlari ishtirokidagi 480 million dollarlik 5 ta loyiha bo'yicha o'zlashtirish boshlanmagan. Hududlarda moliyalashtirilishi to'liq yakunlangan 8 trillion so'mlik qariyb mingta loyiha haligacha ishga tushmagan. Faoliyatida sustkashlikka yo'l qo'ygani uchun Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o'rnbosari B. Abidov, Texnik tartibga solish agentligi direktori D. Sattarov, Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi direktori M. Mirzayev lavozimidan ozod qilindi. Yana bir qator rahbarlarga intizomiy choralar ko'rilishi aytildi. Umuman, investitsiya kompleksiga kiruvchi barcha vazir va hokim o'rnbosarlari faoliyatiga samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) joriy etilishi belgilandi. Yig'ilishda davlatimiz rahbari sohadagi kamchiliklarni aniq tahlillar asosida ko'rsatib o'tdi. Masalan, o'tgan yili 2 ta drayver tarmoq va 4 ta hududda 2022-yilga nisbatan eksport hajmlari kamaygan. Eksportning 50 foizi hanuzgacha 4 ta bozorga to'g'ri kelmoqda. Yoki xorijga tovarlarning uchdan bir qismi xomashyo sifatida sotilmoqda. O'zbekiston "GSP+" tizimiga qo'shilib, Yevropaga 6 ming 200 turdag'i tovarlarni bojsiz olib kirish imkoniyatiga ega bo'lsa-da, o'tgan yili bu tizim doirasida bor-yo'g'i 384 turdag'i tovarlar eksport qilingan. Mevasabzavot eksporti uchun xorijiy davlatlarning fitosanitar ruxsatlari olinganiga qaramasdan, bundan to'liq foydalanilmagan. Aslida, mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqish uchun eksportni yiliga kamida 30 foizga oshirib borish zarur.

Prezidentimiz bu boradagi muhim vazifalarga to'xtalib, tuzilmaviy islohotlarni ma'lum qildi. Xususan, O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tizimi, ish uslubi va yondashuvlari to'liq o'zgaradi. U yangi salohiyatlari bozorlar topish, eksportbop mahsulotlar ekilishini tashkillashtirishga ham mas'ul bo'ladi. So'nggi yillarda meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportida talab etiladigan barcha sertifikat va ruxsatnomalar to'liq raqamlashtirildi. Lekin haligacha chegarada bu jarayon 4 ta idora tomonidan nazorat qilinayapti. Shu bois, chegaradagi barcha nazorat funksiyalari Bojxona qo'mitasiga o'tkazilishi belgilandi. Ko'plab korxonalarimizda xalqaro sertifikat yo'qligi uchun global logistika zanjirlariga qo'shila olmayapti. Iqtisodiyotning drayver sohalarida xalqaro standartlarni joriy qilish darajasi 35 foizga ham yetmaydi. Shuning uchun Texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyati to'liq isloh qilinib, Hukumat tarkibiga o'tkaziladi. Mutasaddilarga korxonalarda xalqaro sifat tizimlarini joriy etish, sifati kafolatlangan mahsulotlar turini ko'paytirish, salohiyatlari davlatlar bilan milliy sertifikatni ikki tomonlama tan olish bo'yicha kelishuvlarga erishish vazifasi qo'yildi. Eksportni kreditlashga 200 million dollar resurs berilgan. Bundan tashqari, bu yil eksportyornarni qo'llab-quvvatlashga 800 milliard so'm yo'naltirilmoqda. Lekin berilgan mablag'lar, har doim ham, qo'shilgan qiymatli mahsulot va eksport manbaiga aylanmayapti. Shu

bois endi eksportni qo'llab-quvvatlash tizimi ham o'zgaradi. Eksportni rag'batlantirish agentligi, Jahon savdo tashkiloti talablari asosida, Savdoni rivojlantirish kompaniyasi sifatida qayta tashkil etiladi. Bu kompaniya beradigan subsidiya, kredit va yordamlar yangi reyting asosida, eng avvalo, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot bilan yangi bozorlarga chiqayotgan eksportchilarga ajratiladi. Mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga yetkazishda ishonchli logistika zanjirlarini tashkil qilish, mintaqaviy va yirik xalqaro loyihalarni jadallashtirish, tovarlarni bojxona rejimida qayta ishslashni kengaytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Салохитдинов, Ш. (2023). ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИ РИВОЖЛАНИШИНинг НАЗАРИЙ ЁДАШУВЛАРИ. Iqtisodiyot va ta'lif, 24(3), 405-409.
2. Салохитдинов, Ш. (2024). ЖИЗЗАХ ВИЛОЯТИ БЎЙИЧА ОЛИЙ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИ СИФАТИНИ БАҲОЛАШ ТИЗИМИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР ТАҲЛИЛИ. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(1), 466-473.
3. Atabaev, K., & Mamadaliev, N. (1981). Propagation of a one-dimensional plastic wave in a medium with linear and discontinuous unloadings. Journal of Applied Mechanics and Technical Physics, 22(3), 414-421.
4. Abdumajid, S. ., Kaxarovich, A. K. ., Abdumajidovich, S. B. ., & Ulugbek, S. . (2023). The Fundamentals of the Digital Economy in Figuring Out the Variables Influencing the Market Value of Residential Real Estate Objects. International Journal of Business Diplomacy and Economy, 2(5), 53–57. <https://doi.org/10.51699/ijbde.v2i5.1724>
5. Gulyamovich, K. H. ., Kahorovich, A. K. ., & Charshanbievich, K. U. . (2022). Impact of Installation Quality on Engineering Systems' Operational Behavior. Web of Scholars: Multidimensional Research Journal, 1(8), 248–251. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/MCUKH>
6. <https://president.uz/oz/lists/view/7024>
7. [https://www.stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26\\_01\\_2024-uzb.pdf](https://www.stat.uz/img/demografiya-press-reliz-26_01_2024-uzb.pdf)
8. <https://president.uz/oz/lists/view/6975>

